

## OVCHI, KO'KCHA VA DONO

### (O'zbek xalq ertagi)

Bir zamonda bir ovchi bo'lgan ekan. Bir kuni u dalaga chiqibdi, yerga tuzoq qo'yib, o'zi pana joyda o'tiribdi. Bir gala kaptar uchib kelib, chinorga qo'nibdi, yerga tushib donlashmoqchi bo'libdi. Ularning orasida Ko'kcha degan keksa bir kaptar bor ekan. U sheriklariga qarab: "Pastga tushmanglar, tuzoq bor, ilinib qolasizlar", — debdi. Kaptarlar Ko'kchanning so'ziga quloq solmay, bitta-bitta uchib tushib, donlay boshlabdi. Oxiri nafslari g'oliblik qilib, to'r ostiga kiribdilar. Ko'kcha sheriklaridan ajralib qolishni, yolg'iz yashashni o'ziga ep bilmabdi. O'zi ham pastga tushib, to'r ostiga kiribdi. Ovchi sekin-asta to'rning ipini tortibdi, hamma kaptarlar tuzoqqa ilinibdi.

Ko'kcha sheriklariga qarab:

— Endi bir so'zim bor, avval xo'p desangiz, aytayin, zora qutulsak, — debdi.

Kaptarlar:

— Xo'p, ayting, avval sizning so'zingizga kirmay, shu baloga yo'liqdik, endi nima desangiz, shuni qilamiz, — deyishibdi.

Ko'kcha:

— Hammamiz birdaniga qanot qoqib, to'r bilan yuqoriga ko'tarilamiz.

Qutulishning yagona yo'li — shu! — debdi. Ko'kcha qarasa, ovchi quvib kelayotgan ekan. Kaptarlar baravariga qanot qoqib juda baland ko'tarilib, ko'zdan g'oyib bo'libdilar.

Ko'kcha endi to'rdan qutulish yo'lini izlab turgan ekan, Dono ismli bir sichqon do'sti yodiga tushib qolibdi va kaptarlarni shu tomonga boshlabdi. Ular cho'l-biyobonlar ustidan o'tib, tog'lardan oshibdilar. Borib-borib Dononingni og'ziga kelib qo'nibdilar. Dono chiqib qarasaki, do'sti Ko'kcha emish. U do'stining iltimosi bilan avval Ko'kchanning sheriklarini, keyin esa o'zini to'rdan qutqazibdi. So'ngra hol-ahvol so'rabdi. Ko'kcha butun voqeani aytib beribdi. Dono qadrdon do'stlarni kutish uchun saiqin va xushhavo yerga joy qilibdi, keyin don-dun, noz-ne'matlarni to'kib tashlabdi.

## II

Chinorda o'tirib hamma voqeani ko'rgan bir qarg'a: "Kaptarlar biror yerga borib tushsa, doniga sherik bo'larman", — degan umid bilan ular orqasidan uchib kelgan ekan. Qarg'a Dononing kaptarlarga bergan yordamini ko'rib hayron bo'libdi, o'zicha: "Do'st yordam berar ekan, men sichqon bilan do'st bolayin", — deb o'ylabdi. So'ngra borib Dononi inidan chaqiribdi. Dono chiqib qarasa, bir qarg'a turgan emish: Dono eshikda turgan qarg'aga qarab:

— Xo'sh, keling, birodar, — debdi.

Qarg'a:

— Men jonivorlaming hech biriga qo'shilmay yolg'iz o'zim yashab kelaman. Yor-birodarlarim, jonkuyarim yo'q, jonivorlar hamisha mendan qochishadi. Yolg'izlik jondan o'tdi, qiynalib ketdim. O'ylab-o'ylab, siz bilan do'st bo'lishni ma'qul ko'rdim, taklifimni qabul qilsangiz, umid bilan keldim, — debdi.

Sichqon Qarg'aga javoban:

— Durust, lekin siz meni qayerda ko'rsangiz, biror ziyon yetkazasiz, shuning uchun so'zingizga ishonish qiyin, — degan ekan, Qarg'a:

— To'g'ri aytasiz, do'stim, qayerda sichqon ko'rsam, tinch qo'ymas edim, ammo do'stlik yaxshi ekan, endi sizga sira zarar yetkazmayman, — deb chinakam va'da beribdi. Dono bo'lsa Qarg'aning so'ziga ishonib, inidan chiqibdi, Qarg'a bilan qo'l olishib, do'st bo'libdi, uni mehmon qilibdi.

Bir kuni qarg'a do'sti Dononi bog'iga taklif qilibdi. Dono rozilik beribdi. Qarg'a dononi tumshug'ida olib bormoqchi bo'libdi, lekin sichqon qiynalmasin deb, uni changalida avaylab olib ketibdi. Bu bog' jahonda bor hamma mevali daraxtlar bilan bezangan ajoyib joy ekan. Xilma-xil gullar xushbo'y hid sohib, bo'stonni yashnatib turar, shishadek tiniq suvlar shildirab oqib turar ekan. Turli-tuman mevalar pishib, tagiga tushib turar ekan. Qarg'a Dononi yaxshilab ziyofat qilibdi. Sichqon ko'p xursand bo'lib, bog'ni qarg'a bilan tomosha qilib yuribdi. Buni shu bog'da yurgan bir toshbaqa ko'rib qolibdi. Ularga havasi kelibdi. Salom berib, ular oldiga boribdi. Hol-ahvollarini, sichqon bilan qarg'a o'rtasidagi inoqlik, mehribonlik sababini so'rabdi. Qarg'a toshbaqaga kaptarlar voqeasini aytib beribdi.

Toshbaqaning havasi ortibdi. Do'stlik, birodarlikning bahosi yo'q. Ular bilan qarddon do'st bo'lishga so'z beribdi. Qarg'a toshbaqani ham ko'p izzat-hurmat bilan ziyofat qilibdi.

### III

Bog'ning bir tomonidagi baland tepa bag'rida bir kiyik yurar ekan. U qarg'a, sichqon va toshbaqaning totuv bo'lib yurishganini ko'rib, qarg'aning makoniga qarab yo'l olibdi. Ular yaqiniga kelib, so'z qotibdi. Uni hammalari xursandchilik bilan kutib olibdilar. Qarg'a kiyikni dasturxonga taklif qilibdi va o'zaro gaplashib o'tirishganda kiyik qarg'a, sichqon, toshbaqaning bir-birlari bilan hamjins bo'lmasalar ham, nima uchun bunchalik inoqliklarining sirini bilishga kelganini aytibdi.

Qarg'a bo'lib o'tgan voqealarni kiyikka birma-bir hikoya qilib beribdi. So'ngra kiyik ham ular bilan do'stlik iplarini bog'lamoqchi bo'libdi.

Do'stlar bu taklifni qabul qilibdilar. Hammalari boshqatdan o'rnidan turib ko'rishib, hol-ahvol so'rashib, kiyikni yuqoriga o'tkazib, unga ko'p tifot qilibdilar. Shu paytda Dono kaptarlarni xotirlabdi. Qarg'a kaptarlarga bir xat yozib berishni Donodan so'rabdi. Dono xursand bo'lib xat yozib, uni qarg'aning oyog'iga bog'labdi.

Qarg'aga oq yo'l tilab, hammalari uni kuzatishibdi. Qarg'a kaptarlarning makoniga kelib xatni beribdi. Kaptarlar xatni o'qib, qarg'a bilan uchib, bog'ga kelib qo'nibdilar. Do'stlar ko'rishib, so'rashib, shirin-shirin suhbatlashib o'tiribdilar.

Bir zamon kiyik sayr-tomoshaga chiqib ketibdi. Lekin hadeganda kelavermabdi. Do'stlar xavotir olibdilar. Shunda Ko'kcha qarg'aga qarab:

— Kiyikdan shu choqqacha darak yo'q, undan xabar olish kerak, — debdi.

Qarg'a kiyikni ko'p axtarsa ham, topolmabdi. Oxiri xafalikdan nima qilarini bilmay hayron bo'lib ketayotganda, bir yerga ko'zi tushibdi, qarasa, bechora kiyik zolim ovchining qo'yib ketgan tuzog'iga oyog'idan ilinib yotgan emish. Tezda uchib borib, do'stlarini bu voqeadan xabardor qilibdi. Ular juda xafa bo'lib, bir-birlari bilan maslahatlashibdilar.

### IV

Ko'kcha bunday debdi:

— Qarg'avoy, sen sichqonni changalingda olib bor, sichqon kiyikning tuzog'ini qirqsin. Bu gap hammaga yoqib tushibdi. Qarg'a sichqonni changalida olib boribdi. orqasidan Ko'kcha ham uchibdi. Bularga toshbaqa ham ergashib qolibdi. Ko'kcha toshbaqaga harchand bormagin, desa ham bo'lmabdi. Qarg'a sichqonni kiyik ilingan joyga oborib qo'yibdi. Sichqon kiyikning oyog'idagi tuzoqni qirqa boshlabdi. Ko'kcha o'ylab turib:

— Do'stim Dono, kiyikning oyog'idagi tuzoqning hammasini qirqma, uch tolasini qoldir. Tag'in ovchi buni bizdan ko'rib, zarar yetkazib yurmasin Ovchi kelgach, kiyik bir

zo‘r berib, uch tolasini uzib ketaveradi, — debdi. Dono ko‘kchanning aytganini qilib, uch tola ipini qoldiribdi.

Avval qarg‘a sichqonni ko‘tarib uchibdi. Uning ketidan kaptar uchibdi. Ular bog‘ga kelib qo‘nishibdi. Qarg‘a sichqonni changalidan sekin yerga qo‘yibdi.

Ovchi tuzoqqa ilingan kiyikni ko‘rib, yugurib kelgan ekan, kiyik bir intilish bilan uch tola ipni uzib qochibdi. Ovchi noumid bo‘lib tuzoqni olib ketmoqchi bo‘lgan ekan, toshbaqani ko‘rib qolib, xurjunga solibdi. Kiyik allaqachon qarg‘aning bog‘iga yetib kelgan ekan. Do‘stlar qarasalarki, toshbaqa yo‘q emish Ko‘kcha:

— Men unga harchand bormagin desam, ko‘nmagan edi. Bor, qarg‘a xabar olib kel! — debdi.

Qarg‘a kiyik ilingan joyga borib qarasa, ovchi toshbaqani xurjunga solib, og‘zini mahkam bog‘lab ketayotgan emish. Tezda do‘stlariga xabar beribdi: Ko‘kcha yana maslahat beribdi. Do‘stlar Ko‘kchanning maslahatini ma‘qul topib, shunday qilibdilar: qarg‘a sichqonni ko‘tarib uchib ketibdi. Kiyik ovchining oldidan o‘taveribdi. Ovchi kiyikni ko‘rib xursand bo‘libdi. “Tuzoqdan qochish vaqtida oyog‘i sinib, cho‘loq bo‘lib qolgan ekan, endi uni ushlab olaman”, — deb kiyikning orqasidan yuguribdi. Kiyik ham oqsoqlanib qochaveribdi. Oxiri ovchi juda charchabdi, yelkasidagi xurjunni tashlab, kiyik orqasidan rosa yuguribdi. Qarg‘a sichqonni xurjun yaqiniga eltib qo‘yibdi. Sichqon xurjunni teshib toshbaqani qutqazibdi. Toshbaqa bir katta toshning tagiga kirib berkinibdi. Qarg‘a sichqonni bog‘ga olib borib qo‘yibdi. So‘ngra kiyikning oldiga borib: “Ish bitdi, endi qochaver!” - debdi. Kiyik qochib ketibdi. Ovchi kiyikning gardiga ham yetolmay qolibdi. Kiyik bilan kaptar qarg‘aning bog‘iga borishibdi. Do‘stlar xursand bo‘lishib, do‘stlik samarasidan bahramand bo‘lib, tog‘da tinch umr kechira boshlabdilar.

**Gulgina kitobidan**